

SCIENCE AND EDUCATION

ISSN 2181-0842

VOLUME 3, ISSUE 5

MAY 2022

SCIENCE AND EDUCATION

SCIENTIFIC JOURNAL

ISSN 2181-0842

VOLUME 3, ISSUE 5

MAY 2022



www.openscience.uz

SCIENCE AND EDUCATION
SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 3 ISSUE 5

Executive Secretary

Tusmatova Nozima Inomovna

Editorial board

Z.Yaxshieva

Jizzakh State Pedagogical Institute, Doctor of Chemical Sciences

S.Sangwa

African Leadership University, Doctor of Business Administration

S.Otakulov

Jizzakh Polytechnic Institute, Doctor of Physical and Mathematical Sciences

M.A.S.Khasawneh

King Khalid University, Special Education, PhD

Sh.Akramova

Military-technical Institute of the National Guard, Doctor of Pedagogical Sciences

E.M.Colocassides

College of Tourism & Hotel Management, Doctor of Science in Communication

B.Sultonov

Tashkent Pharmaceutical Institute, Doctor of Technical Sciences

Ya.L.Chernyavskaya

Tyumen State Medical University, Candidate of Philological Sciences

A.Sidiqov

Tashkent Institute of Chemical Technology, Doctor of Chemical Sciences

W.B.Vidona

Edo State University, Anatomy, PhD

B.Kucharov

Institute of General and Inorganic Chemistry of the Academy of Sciences, Doctor of Technical Sciences

I.Eshmetov

Institute of General and Inorganic Chemistry of the Academy of Sciences, Doctor of Technical Sciences

M.Abdullaev

Andijan State University, Doctor of Historical Sciences

Z.Tojieva

National University of Uzbekistan, Doctor of Geographical Sciences

N.Jiyanova

Tashkent Financial Institute, Candidate of Economic Sciences

X.Qobulov

Tashkent Financial Institute, Candidate of Economic Sciences

A.Nabiev

Tashkent Institute of Chemical Technology, PhD in Technical Sciences

A.Turgunbaeva

Namangan State University, PhD in Psychological Sciences

B.Xaynazarov

National University of Uzbekistan, PhD in Historical Sciences

M.Voxidova

Tashkent State Institute of Oriental Studies, PhD in Economics

A.Rahmonov

Republican Scientific-Practical Center, PhD in Pedagogical Sciences

G.Ochilova

Karshi Institute of Engineering and Economics, Candidate of Philosophical Sciences

B.Omonov

Karshi State University, PhD in Philosophical Sciences

O.Axmedova

Bukhara Institute of Engineering and Technology, PhD in Technical Sciences

G.Jumanazarova

Jizzakh State Pedagogical Institute, Doctor of Philological Sciences

T.Sabirjanov

Fergana Polytechnic Institute, Candidate of Technical Sciences

Sh.Ismoilov

Tashkent State Law University, Doctor of Sciences in Law

M.Rakhimov

Tashkent State Law University, Doctor of Philosophy in Law

L.Rakhimkulova

Tashkent State Law University, Doctor of Philosophy in Law

A.Sultonov

Jizzakh Polytechnic Institute, PhD in Economics

Mas'ul kotib

Tusmatova Nozima Inomovna

Tahririyat

Z.Yaxshiyeva

Jizzax davlat pedagogika instituti, kimyo fanlari doktori

S.Sangwa

African Leadership University, Doctor of Business Administration

S.Otaqulov

Jizzax politexnika instituti, fizika-matematika fanlari doktori

M.A.S.Khasawneh

King Khalid University, Special Education, PhD

Sh.Akramova

Milliy gvardiya harbiy-texnik instituti, pedagogika fanlari doktori

E.M.Colocassides

College of Tourism & Hotel Management, Doctor of Science in Communication

B.Sultonov

Toshkent farmatsevtika instituti, texnika fanlari doktori

Ya.L.Chernyavskaya

Tюменский государственный медицинский университет, кандидат филологических наук

A.Sidiqov

Toshkent kimyo-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori

W.B.Vidona

Edo State University, Anatomy, PhD

B.Kucharov

Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, texnika fanlari doktori

I.Eshmetov

Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, texnika fanlari doktori

M.Abdullayev

Andijon davlat universiteti, tarix fanlari doktori

Z.Tojieva

O'zbekiston milliy universiteti, Geografiya fanlari doktori

N.Jiyanova

Toshkent moliya instituti, iqtisod fanlari nomzodi

X.Qobulov

Toshkent moliya instituti, iqtisod fanlari nomzodi

A.Nabiev

Toshkent kimyo texnologiya instituti, texnika fanlari PhD

A.Turgunbayeva

Namangan davlat universiteti, psixologiya fanlari PhD

B.Xaynazarov

O'zbekiston milliy universiteti, tarix fanlari PhD

M.Voxidova

Tashkent davlat sharqshunoslik instituti, iqtisodiyot fanlari PhD

A.Rahmonov

Respublika ilmiy-amaliy markaz, pedagogika fanlari PhD

G.Ochilova

Qarshi muxandislik-iqtisodiyot instituti, falsafa fanlari nomzodi

B.Omonov

Qarshi davlat universiteti, falsafa fanlari PhD

O.Axmedova

Buxoro muxandislik-texnologiya instituti, texnika fanlari PhD

G.Jumanazarova

Jizzax davlat pedagogika instituti, filologiya fanlari doktori

T.Sobirjonov

Farg'oncha politexnika instituti, texnika fanlari nomzodi

Sh.Ismoilov

Toshkent davlat yuridik universiteti, yuridik fanlari doktori

M.Rakhimov

Toshkent davlat yuridik universiteti, yuridik fanlari falsafa doktori

L.Rahimqulova

Toshkent davlat yuridik universiteti, yuridik fanlari falsafa doktori

A.Sultonov

Jizzax politexnika instituti, iqtisodiyot fanlari PhD

98.	Нуриддин Юсупович Арипов, Уткир Исамидинович Куйчиев Хусниддин Рустамович Шомуродов, Хусниддин Хасан уғли Кокилов Чиқиндиларни маҳсус конвеерларда ортиш, уларни қайта ишлаш - бу иқтисодий самарадорликни ошириш билан бирга экологик мухитни барқарорлаштирга эришишнинг ягона усулидир	641
-----	---	-----

PEDAGOGICAL SCIENCES / PEDAGOGIKA FANLARI

99.	Zulfiya Egamberdiyevna Bobomurodova, Mavjudा Xаqqulova <i>Boshlang'ich sinflarda fonetika va grafika asoslarini o'rganish metodikasi</i>	649
100.	Алевтина Викторовна Ахмедбекова, Надежда Васильевна Дрёмова Ойбек Акбаралиевич Ортиков <i>Важность преподавания инженерных дисциплин в высших учебных заведениях</i>	655
101.	Feruza Hajiboy qizi Yusupova, Nilufar Saparbay qizi Yangibayeva Malohat Xudaynazar qizi Abdusharipova <i>Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya maqsadi</i>	661
102.	Eshov Erkin Sattorovich <i>Inson ehtiyojlarining rivojlanish psixologiyasi</i>	666
103.	Dilafro'z Nuriddinovna Oblayeva Turkiston milliy teatrida Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatining ma'naviy hayotida tutgan o'rni	670
104.	Mohammad Abedrabbu Alkhawaldeh, Mohamad Ahmad Saleem Khasawneh Problems faced by English language teachers in teaching students with learning disabilities	677
105.	Mohammad Abedrabbu Alkhawaldeh, Mohamad Ahmad Saleem Khasawneh The challenges that English teachers face in the employment of the evaluation matrix in classes for students with learning difficulties	688
106.	Abduolim Xolmat o'g'li Alimqulov <i>Metodika va zamonaviy dars o'tish turlari</i>	700
107.	Muqaddam Maxmudjanovna Bobonazarova, Nigora Xodjamkeldiyevna Normatova <i>Shaxsning ustanonvaksi yoki anglanmagan mayllarining mohiyati</i>	704
108.	Januaris Pane, Desi Sinaga, Eliza Manurung Influence of PBL learning model on students' ability to complete higher order question thinking skills	708
109.	Zeboxon Mullajonovna Babanazarova, Manzura Ergashevna Miralimova <i>Ta'lim jarayonida o'quv faoliyati motivlari</i>	715
110.	Atirgul Miktiboyevna Abdurasulova Texnologiya fani bo'yicha ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakillantirish metodikasi	719
111.	Laziz Axrorovich Azimov Harakatli o'yinlarni qo'llash asosida o'smir kurashchilarining sport motivatsyясini rivojlantirish	724
112.	Shakhnoza Valievna Karimova <i>Strategies for expanding students' vocabulary in ESL lessons</i>	730
113.	Farida Xaydaraliyevna Ashurova, Zamira Aminjonovna Normatova <i>Activities of the reader and modern pedagogical education</i>	737
114.	Aziza Egambergan qizi Raximova <i>Didaktik o'yinlarning turlari va ularni olib borishga doir talablar</i>	741
115.	Зилола Бафаева <i>Психологические механизмы межличностного конфликта</i>	748
116.	Muattar Baltabayeva <i>Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning huquqiy immunitetini oshirish</i>	754

Inson ehtiyojlarining rivojlanish psixologiyasi

Eshov Erkin Sattorovich
BuxDU Psixologiya kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ma'lum muhitda yashovchi hayvonning u yoki bu tarzdagi xatti-harakati aniq ehtiyojni qondirishga qaratilgan bo'ladi. Shu bois ehtiyoj hayvonni faollikka undash bilan cheklanib qolmasdan, balki faollikning turlari, shakli, harakatlantiruvchi kuchiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Hayvonda ovqatlanish ehtiyojining tug'ilishi unda faollikni vujudga keltiradi, natijada so'lak bezlari ishlay boshlaydi, o'lja qidirish, uni poylash, tutish va iste'mol qilish bilan bog'liq holatlar majmuasi yuzaga keladi. Mazkur jarayonlar shartli reflekslar, faollikni keltirib chiqaruvchi yangi qo'zg'ovchi va unga muvofiq bo'lgan yangi harakatlar bilan bog'lanishi munikin, biroq hayvon xatti-harakatining tuzilishida hech qanday o'zgarish yuz bermaydi. Ushbu maqolada inson ehtiyojlarining rivojlanishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Inson, ehtiyoj, reflex, fiziologiya, psixologiya.

Development of human needs

Abstract: The behavior of an animal living in a particular environment is aimed at satisfying a specific need. Therefore, the need is not limited to motivating the animal to activity, but also affects the types, forms and motives of activity. The need for food in an animal causes it to become active, resulting in the salivary glands becoming active, and a set of conditions associated with the search for prey, its ambush, capture, and consumption. These processes may be associated with conditioned reflexes, a new stimulus that triggers activity, and new actions corresponding to it, but there is no change in the structure of the animal's behavior. This article discusses the evolution of human needs.

Keywords: Man, need, reflex, physiology, psychology.

Asosiy qism

Jahon fiziolog va psixologlari tomonidan hayvonlarda shartli reflekslarni shakllantirishga oid tajriba materiallarining ko'rsatishicha, vosita sifatida foydalanilgan qo'ng'iroq chalinishi hayvon uchun tashqi qo'zg'atuvchilar ichidan

faqat ovqatlanishga bog‘liq signal (ishora) vazifasini bajaradi, xolos.

O‘rgatilgan hayvon tomonidan tepkini bosish jarayoni unga ovqatning berilishi bilan aloqador xatti-harakat tarzida amalga oshiriladi. Shuning uchun hayvon har qanday murakkab shartli reflekslar yordami bilan o‘z xatti-harakatini amalga oshirgan bo‘lishiga qaramay, ehtiyojlar bevosita lining psixikasini aks ettirish, muayyan obyektga yo‘naltirish, xatti-harakatini idora qilish funksiyasini bajaradi.

Insonning faoliyati, xulq-atvori, xatti-harakati hayvonlarnikidan tubdan farq qiladi. Ularni tarkib toptirish mutlaqo boshqa asosga quriladi. Misol uchun bolaning ovqatlanishi, xatti-harakati, qoshiqdan foydalanishi, maxsus ajratilgan joyda o‘tirishi, ovqat yeish qurolini ishlata olishi uning tabiiy ehtiyojlari tufayli yuzaga kelgan deyish haqiqatdan uzoq fikr, chunki uning negizida yotuvchi mexanizmlar siri tushuntirib berilmagan. Ma’lumki, tabiiy ehtiyojni qondirish uchun alohida shart-sharoitlar yaratib o‘tirmasa ham bo‘ladi. Masalan, insonda uyquga ehtiyoj tug‘ilsa, u holda hech qanday yumshoq o‘ringa, divanga talab sezilmaydi, charchagan odam duch kelgan joyda o‘z ehtiyojini qondiraveradi. Madaniy xatti-harakatlar, odatlarning insonda vujudga kelishi ijtimoiy tarbiyaning ta’sirida tabiiy ehtiyojlarni qondirishning vositasi, sharti sifatida gavdalanim. qurollar, buyumlar ularning tarkibiy qismiga aylana boshlaydi. Bunday xatti-harakatlar shaklini keltirib chiqaruvchi asosiy manba tub ma’nodagi ehtiyoj emas, balki uni qondirishning jamiyat taraqqiyoti talab qilgan qoidalari, usullari, kamolot taqozo etuvchi madaniy ko‘nikmalar hisoblanadi. Jamiyatning taraqqiyot bosqichlariga binoan tabiiy ehtiyojlarni qondirishning yangidan yangi, yanada takomillashgan vositalari insoniyat tomonidan yaratilaveradi va bular ehtiyojlar tarkibi bilan qorishib ketadi. Madaniy va ma’naviy ehtiyojlar to‘g‘risida ham xuddi shunga o‘xhash o‘zgarishlar yuz beradi, ya’ni shaxsning boshqa kishilar bilan muloqotga kirishishi, bilimlarni o‘zlashtirishida texnik vositalardan foydalanishi, nutqi va kiyinish madaniyatining o‘sishi, ularni qondirishga talab darajasining ortishi mazkur ehtiyojlar rivojlanishini ta’minlaydi.

Psixologiyada ehtiyojlar rivojlanishining bir necha bosqichlari mavjud ekanligini ta’kidlab o‘tish zarur. Chunki, ehtiyojlar inson ontogenezida paydo bo‘lib, to umrining oxirigacha o‘zgarib, takomillashib boradi. Kishilik jamiyatlarida ehtiyojlar bir-biridan ham mohiyat, ham shakl jihatidan tafovutga ega bo‘lganday, yosh davrlariga qarab, ular xuddi shunday mezonlar bo‘yicha o‘zaro farqlanadilar.

Bola faolligini rivojlantirishning dastlabki bosqichlaridayoq, biologik ahamiyatga ega buyumiar (jismlar ustuvorlik xususiyatiga ega bo‘lmaydilar), aksincha, ularning inson tomonidan foydalanish usullari ehtiyojlarning omillari tariqasida gavdalaniadi. Binobarin, mazkur buyumiar, aslahalarning ijtimoiy tajribalarni egallashdagi ahamiyati, o‘rni namoyon bo‘lishning mexanizmlari sifatida maydonga keladi. Bolalarning xuddi shu yo‘sinda egallaydigan xatti-harakatlarining yangi shakllari - bu jamiyat tomonidan ijtimoiy amaliyot vazifalariga munosib ravishda ishlab chiqilgan

usullaridan iborat bo‘lib, buyumlar bilan shaxsning munosabati tarzida yuzaga keladi, kishining kundalik faoliyatidan muhim o‘rin egallaydi. Stol atrofida o‘tirish, qoshiq bilan ovqat yeyish, karavotda uplash, televizor tomosha qilish, o‘yinchoq o‘ynash, kattalar bilan muomala qilish yuqorida fikr mohiyatini yanada yorqinroq ochib beradi. Katta yoshdagilar yoshlarga ehtiyojni qondirish vositalaridan foydalanish qoidalarini, ijtimoiy muomala usullari, faoliyatni amalga oshirishning yo‘l-yo‘riqlarini o‘rgatadi. Ehtiyojlarni muayyan buyumlar vositasida qondirishga va ularni muayyan faoliyat turiga tatbiq etishning insoniy shakllarini egallahsga o‘rgatish maxsus mashqlar orqali amalga oshirilib, “Yetuk shaxs - bola” tarzida yuzaga keladi. Demak, bola ehtiyoji qondirilayotgan insoniy shart-sharoitlar ta’siri ostida shaxsning xulq-atvori vositalar ahamiyati bilan emas, balki ularning ijtimoiy qiymati bilan belgilanadi. Ehtiyojlarning qondirilish darajasi uning og‘ir yoki yengil ko‘chishi shaxsning shakllanishida muhim ahamiyatga ega, shu bois ularni qondirish maqsadga muvofiq, oqilona mezonlarga suyanib amalga oshirilsa, ijtimoiy nufuzi yanada ortadi.

Insonda madaniy va ma’naviy ehtiyojlar turmush tajribasining ortishi, bilim saviyasing kengayishi, maxsus mashqlar egallanishi, ijtimoiy hayot qoidalariga uzlusiz ravishda rioya qilishi. narsa va hodisalarga munosabatining o‘zgarishi tufayli rivojiana boradi. Odam tobora kamolga yetgan sayin uning oldida yangicha talablar ko‘ndalang qo‘yiladi, ularni bajarish esa ehtiyojning yangi, nisbatan murakkab, mohiyat jihatdan teran xususiyat kasb etuvchi shakllarini vujudga keltiradi, ularning qondirilishi esa tuzilishga ega bo‘lgan vositalarni taqozo etadi. Ilmlilik, aql-zakovat ko‘rsatkichining yuksalishi, iste’dod alomatlarining ro‘yobga chiqishi, faollikning ortishi, xatti-harakat tarkibida keraksiz bo‘g‘inlarning kamayish ehtiyoji takomillashgan shaklining namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Inson har jihatdan qulay turmush (komfort) sari intilar ekan, demakki, unda yangi ehtiyojlar yuzaga keladi, ularning qondirilishi esa yangi bir sifat darajasiga ko‘tariladi. Madaniyatning yangi qirralari ochilishi, ma’naviyatni egallahsga istakning kuchayishi, fan va texnikaning taraqqiyoti, millatlararo munosabatlar ko‘laming kengayishi rang-barang ehtiyoj turlari va shakllari rivojlanishiga muhim shart-sharoitlar yaratadi. Insonning barkamollik sari intilishdagi imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish orzusi ehtiyojlar rivojlanishida harakatlantiruvchi kuchga aylanadi.

Psixologiyada ehtiyoj quyidagi tiplarga ajratiladi:

1. Individual - yakka shaxsga oid.
2. Guruhiy - real guruhlarning moddiy va ma’naviy intilishi,
3. Jamoaviy - jipslashgan guruhlar talabi majmuasi.
4. Hududiy - etnik guruhning muayyan o‘ziga xos talablarining qondirilishi.
5. Etnik - ma’lum millat yoki xaiqlaming ehtiyojarini qondirish.
6. Umumbashariy - yer yuzi xalqlarining umumiy talablarining aks etishi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S. To'ychiyeva. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya (o'quv-metodik qo'llanma). TDPU, – T.: – 2004.
2. E. G'oziyev. Psixologiya. Darslik. «O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. – 2008.
3. P.I. Ivanov, M.E. Zufarova. Umumiy psixologiya. Darslik. T – 2008.
4. Z. Nishanova. Bolalar psixodiagnostikasi. TDPU nashriyoti. Toshkent – 1998.